O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarning huquqiy maqomi va ularni isloq qilishning istiqbollari....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi .....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilqatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	




Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# “SAM ANTEP GILAM” MCHJDA MARKETINGNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI

**Usmonova D. I.**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti marketing kafedrasi dotsenti



**Annotatsiya:** Mazkur maqolada zamonaviy marketing-menejment tamoyillari, elementlarini tahlil qilish, marketing boshqaruvini shakllanishini o’rganish, korxonaning tovar ishlab chiqarish faoliyatiga tavsif berish, korxonada ishlab chiqarilayotgan tovarlarning assortmentini, narxi, siljitim tizimi, sifat va raqobatbardoshligini tahlil qilish ko’rib chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** Iqtisodiyot, bozor, korxona, raqobat, tovar, assortment, siljitim, sifat, tahlil.

**Abstract:** This article analyzes the principles and elements of modern marketing management, studies the formation of marketing management, describes the production activities of the enterprise, analyzes the assortment, price, movement system, quality and competitiveness of goods manufactured at the enterprise.

**Key words:** economy, market, enterprise, competition, product, assortment, quality, analysis.

**Аннотация:** В данной статье анализируются принципы и элементы современного управления маркетингом, изучается становление управления маркетингом, описывается производственная деятельность предприятия, анализируются ассортимент, цена, система движения, качество и конкурентоспособность товаров, выпускаемых на предприятии.

**Ключевые слова:** экономика, рынок, предприятие, конкуренция, товар, ассортимент, качество, анализ.

## KIRISH

O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlantirish Strategiyasida to’qimachilik va tikuv sanoatiga katta ahamiyat berilgan. Buning sababi, bir tomonidan paxta xom ashyosining chuqur qayta ishlash natijasidan qo’shilgan qiymati yuqori bo’lgan mahsulotlar yaratish bo’lsa, ikkinchi tomonidan mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda to’qimachilik sanoatining imkoniyatlarining ko’pligidir. Mamlakatimiz Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 14-dekabrda “To’qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5285-sonli Farmonining qabul qilinishi sohaning rivojlanishiga huquqiy asos bo’lib xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta’kidlash lozimki korxonaning bozordagi raqobatbardoshligi uning bozorga yo’naltirilan siyosatining samaradorligi bilan belgilanadi. Marketing tamoyillarini rivojlantirish va ularni amalda qo’llash bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar shug'ullanib kelgan Ular qatoriga F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo’shgan olimlarni ham e’tirof etish lozim. Bularga R. Ibragimov, Y. Abdullayev, A. Saliyev, M. Sharifxo’jayev, D. Raximova, Sh. Ergashxodjayeva va boshqalarini kiritish mumkin.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalaniilgan.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Gilam mahsulotlari bozorida ilmiy tadqiqotimizni maqsadiga "SAM ANTEP GILAM" MCHJ qo'shma korxonasida marketingni boshqarish faoliyatini takomillashtirish, jumladan, tovar siyosatini tashkil etilishi, assortiment siyosatini yo'lga qo'yish, tovar hayotiy davrini boshqarish, ichki va tashki bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar olg'a surilgan va hal qilingan:

- zamonaviy marketing-menejment tamoyillari, elementlari hamda nazariy asoslarning tanqidiy tahlil qilish;
- iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarning marketing boshqaruvini shakllanishini o'rganish;
- "SAM ANTEP GILAM" MCHJ qo'shma korxonasing tovar ishlab chiqarish faoliyatiga tavsif berish;
- korxonada ishlab chiqarilayotgan tovarlarning assortimentini, narxi, siljitch tizimi, sifat va raqobatbardoshligini tahlil qilish;

"SamAntepGilam" Xorijiy korxonasi mas'uliyat cheklangan jamiyati ham Prezident tomonidan belgilangan vazifalarni bajarishga va bozorni sifatlari gilam mahsulotlari bilan to'yintirishga harakat qiladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida bo'layotgan katta o'zgarishlarni hisobga olgan holda, "SAG" MCHJ gilam ishlab chiqarish sohasida O'zbekistondagi yetakchi korxonalardan biridir.

SAG gilamlari – gilam va gilam to'shamalar ishlab chiqaruvchi korxona bo'lib, shu davr ichida u kichik to'qimachilik fabrikasidan hozirgi kunda O'rta Osiyo va MDH mamlakatlarda yetakchi o'rinni egallab kelayotgan korxonagacha bo'lgan uzoq yo'lni bosib o'tdi.

SAG savdo markasi – bu gilam sanoatida eng ilg'or texnologiyalardan foydalanish va muntazam sifat nazorating garovidir. Ip ishlab chiqarishdan boshlab va mahsulotning yakuniy qadoqlash jarayonigacha bo'lgan butun ishlab chiqarish sikli – fabrikaning o'zida amalga oshiriladi. Korxonada faqat yuqori sifatlari va ekologik toza xom ashyordan foydalaniлади. Shuningdek, ISO 9001:2008 sifat nazorati xalqaro tizimi joriy etilgan, bu esa mahsulotlarimizning barcha xalqaro me'yor va sifat standartlariga muvofiqligining garovidir. Korxona Belgiya va Germaniyaning Shoner Wohnen va VanDeWiele kabi eng innovatsion asbob-uskulnari bilan jihozlangan.

SAG – O'zbekiston Respublikasidagi eng yirik ish beruvchilardan biri ham hisoblanadi. Ahil va uyushgan jamoa o'z oldiga doim ulkan maqsadlar qo'yadi va o'z maqsadlari yo'lida doim muvaffaqiyatlarga erishadi.

Kompaniyaning rejasи yanada innovatsion uskunalarini xarid qilish, yangi ish joylarini ko'paytirish va taklif etiladigan kolleksiyalarimiz sonini oshirish yo'li bilan ishlab chiqarish hajmini ko'tarishdan iborat.

Kompaniya bosh maqsadi – yuqori sifatlari gilam mahsulotlarining keng tanlovinini taqdim etgan holda, insonlar hayotiga quvonch olib kirish, shinamlik va qulayliklar yaratishdir.

**1-jadval: "SAG" MCHJning iqtisodiy ko'rsatkichlarining dinamikasi**

	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2016-y.	2020-y.	2022-y.
Zamonaviy uskunalarining joriy etilishi	1	12	25	30	35	40
Ishlab chiqarish dinamikasi (ming, m <sup>2</sup> )	1000	7000	12000	18000	20000	30000
Xodimlar soni	50	200	500	700	900	1000

Korxonaning shaxsiy labaratoriyasi mavjud bo'lib, u 2012-yil asos solingenan. 1 oy davomida labaratoriyada 30-35 tonnagacha bo'yash vositalari ishlab chiqariladi.O'zining shaxsiy bo'yash vositalari labaratoriyasiga ega O'zbekistonda yagona gilam korxonasıdir.

Korxonada kuniga 38 tonnagacha ip yigirladi.Bu korxona mamlakatimizda polepropilin (PP BCF, PP HS, PP HS FREEZE, TRICOLOR YARNS) iplarini birinchiladan bo'lib ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan korxonalardan biri.

To'quv iplarini ishlab chiqarish esa 2016-yilda yo'lga qo'yilgan bo'lib, hozirda bu yo'nalishda 350 kishiga yaqin ishchi xodimlar mehnat qilmoqda.Yiliغا о'rtacha 2,5 tonnagacha paxta tolalari qayta ishlanadi. Paxta va sun'iy tolalar aralashmasidan iborat to'quv iplarini ishlab chiqarishga asos solingen korxonalarda biri.

Bundan tashqari, korxonada poliester iplari ham ishlab chiqarilib, bunga 2016-yilda asos solingenan. Yillik ishlab chiqarish hajmi 3,5 tonnani tashkil qilib, poliester iplarini ishlab chiqarish polietelin idishlarni qayta ishlash orqali amalga oshiriladi.

Ushbu korxona nafaqat milliy bozor balki chet el bozoriga o'zining yuqori sifatlari gilam va gilam to'shamalari taklif etgan holda kirib borgan. Hozirda korxona o'z mahsulotlarini barcha MDH davlatlari(Rossiya, Ukraina, Qozog'iston, Tojikiston, Azerbayjon va boshqalar) va Xitoy, Turkiya kabi mamlakatlarga ham eksport qilmoqda. Korxonaning eksport potensiali juda yuqori.



1-rasm: Korxonada ip ishlab chiqarish jarayoni

Marketing boshqaruvining tahlili tadqiqotimizning nazariy qismida keltirilgan marketing-miks konsepsiyasiga mos ravishda o'tkaziladi, ya'ni tovar (mahsulot assortimenti), narx (narx siyosati), joy (sotishni tashkil qilish) va siljitim (marketing kommunikatsiyalari). Bundan tashqari, marketing boshqaruvini tahlil qilishda bizlar kompaniyaning xodimlarga nisbatan bo'lgan siyosatini ham alohida ko'rib chiqqanmiz.

#### A) Mahsulot assortimenti va uning tahlili

Tovar assortimentining rivojlanishi korxona marketingining eng muhim funksiyasi hisoblanadi. U ishlab chiqaruvchining an'anaviy yoki yashirin texnikaviy va moddiy imkoniyatlarini muayyan iste'mol qiymatiga ega bo'lgan, xaridorni qondiradigan va korxonaga foyda keltiradigan mahsulot va xizmatlarga tatbiq etishda namoyon bo'ladi.

SAG qo'shma korxonasi mahsulotlari assortimentiga o'zining tarkibi, ishlab chiqarish texnologiyasi, zichligi, patining uzunligi, o'lchami, ko'rinishi, dizayni va boshqa texnik parametrlari bilan farqlanuvchi turli gilamlar, yo'lakcha, kovrolin va boshqa turdag'i tushamalari kiradi.

Bugungi kunda Respublika bozorlarida sotilayotgan gilam tushamalar assortimentini kengaytirish va iste'molchilar talabini qondirish maqsadida SAG qo'shma korxonasida 30 ga yaqin kolleksiya tarkibiga kirgan 3000 dan ziyod dizayndagi gilam to'shamalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Jumladan "Tumaris", "Zilli", "Rodin", "Zara", "Troya", "Eron", "SHayx", "Pantera" "SHohsulton", "Imperial", "Avangard", "Super shaggi", "Isfaxon", "Avangard", "Babi", "Imperial qahva" kolleksiyalari va boshqalar. Bu erdag'i kolleksiyalar dizayni bo'yicha tur-licha. Gilamlar turli ranglarda ishlab chiqariladi, asosan 8 rangda bo'ladi va shu orqali kolleksiyalar dizayni bir biridan farq qiladi.

2-jadval: "Sam Antep Gilam" QK MCHJ mahsulotlarining kompaniya daromadida ishtirok etishi

Kolleksiya nomi	Daromaddagi ulushi	O'sish tarzida
Isfahan	19,45%	19,45%
Tumaris	18,39%	37,84%
Rodin Gray	11,40%	49,24%
Zilly	9,86%	59,1%
Emir	6,98%	66,08%
Ponte	5,24%	71,32%
Reflex	4,62%	75,94%
Therapy	4,61%	80,55%
Avangard	2,89%	83,44%
Baby	2,87%	86,31%
X (20 ta boshqalar)	13,69%	100%
Umumiy	100,00%	

3-jadval: "Sam Antep Gilam" QK MCHJ mahsulotlarining kompaniya uchun ahamiyatini baholash

Kolleksiya nomi	Daromaddagi ulushi	O'sish tarzida	Guruxlanishi
Isfahan	19,45%	19,45%	A
Tumaris	18,39%	37,84%	A



Rodin Gray	11,40%	49,24%	A
Zilly	9,86%	59,1%	A
Emir	6,98%	66,08%	A
Ponte	5,24%	71,32%	A
Reflex	4,62%	75,94%	A
Therapy	4,61%	80,55%	B
Avangard	2,89%	83,44%	B
Baby	2,87%	86,31%	B
X (20ta boshqalar)	13,69%	100%	B-C
Umumiy	100,00%		

Bizning holatda A guruh (qonuniyat bo'yicha 15-80%) Sheyx, Imperial, Iran, Aladin, Almira, Zara, Fortuna (assortimentning 23%) umumi daromadning 75,94% ini tashkil etdi, B guruh va S guruh Super Shaggy, Troya, Imperial Grey va boshka 20 ta kolleksiyalar daromadning qolgan miqdorini tashkil etdi. Bundan ko'rinish turibdiki, korxona uchun A guruxdag'i kolleksiyalar daromadning asosiy manbalari ekan.

Mahsulotlarni bunday guruhlarga ajratish orqali, korxona aynan qaysi tovarlar guruhi asosiy daromad manbayi ekanligini aniqlashi to'g'risidagi hisobotga ega bo'lishi mumkin.

"Sam Antep Gilam" QK MCHJ mahsulotlarining kompaniya daromadida diqqat markazida bo'lgan yana bir yo'nalish – bu gilamlarning shakli va ranglar uyg'unligidir. Oxirgi yillarda bizlar burtmachining xohishiga qarab har qanday o'lchamdag'i gilamlar ishlab chiqarishni yo'lg'a qo'yganmiz, ya'ni individual buyurtmalar ustida ishlashni joriy etganmiz. Bugungi kun vazifamiz turli shakldagi (aylana, oval, murakkab shakllar) gilmalar ishlab chiqarilishini joriy qilishdir. Bunda iste'molchilarning dizaynga bo'lgan talablari to'la qondirilishi mumkin bo'ladi.

Tovar siyosatining yana bir jihatni gilamlarning to'qish zichligini oshirishdan iborat, ya'ni gilamlar mayinligi va funksional jihatlarini oshirishdir. Bu yo'nalishda korxona rahbariyati tomonidan ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga qaratilgan siyosatini qatsd etish mumkin. Bugungi kunda ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish bo'yicha investitsion loyihalari ustida ishlatmoqda. Gilamlar da qo'llaniladigan iplarning turlarini oshirish, ranglarning mustahkamlagini ta'minlash, gilam mahsulotlari assortimentini kengaytirish kabi yo'nalishlar ham mahsulotlarimiz sifatini oshirish siyosatining alohida jihatlari hisoblanadi.

Rivojlangan bozor munosabatlari innovatsiyalarsiz bo'lmaydi, shuning uchun korxona ilmiy izlanishlarga katta e'tibor bilan qaraydi va ilmiy izlanishlar natijalarini joriy qilishga harakat qilib keladi.

### B) Narx siyosati va uning tahlili

"Sam Antep Gilam" QK MCHJ sining narx siyosati ishlab chiqariladigan mahsulotlarning funksional vazifasi hamda xarid qilish maqsadidan kelib chiqadi. Bunda kompaniya mahsulotlarining toifalarga ajratilishi ularning narxini belgilashning asosiy mezoni hisoblanadi.

A toifasi: Iste'molchi uchun mavqeyini tasdiqlaydigan, uy bezagi sifatida tan olinadigan, yuqori sifatli xom ashyodan ishlab chiqariladigan va individual xossalarga ega mahsulotlar. Odatda bu mahsulotlar kolleksiya tarkibida bo'lib har bir iste'molchining talabini qondirishga yo'naltiriladi;

B toifasi: Yuqori sifatli xom ashyodan ishlab chiqarilgan, dizayni bilan ajralib turadigan. Ammo ommaviy dizayn va modaga mos keladigan mahsulot partiyalarini o'z ichiga oladigan, aholining yuqori va o'rta daromadli qatlamiga mo'ljallangan mahsulotlar;

C toifasi: Aholining talablariga mos rpavishda ommaviy ishlab chiqariladigan gilam mahsulotlari. Ularning asosiy xususiyati iste'molchilarning ko'plik qimiga yo'naltirilganligi, narx va sifatning uyg'unligi hamda buyurtma bajarilishida tezkorlikka riosa qilinishidir.

D toifasi: Jamoatchilik joylari, korxona va tashkilotlar uchun ishlab chiqariladigan gilam va to'shamma mahsulotlari.

Har bir toifa mahsulotlari uchun "Sam Antep Gilam" QK MCHJ kompaniya o'ziga xos narx siyosatini yaratib boradi. Kompaniya ishlab chiqaradigan mahsulotlarning ayrimlariga 2021-yilda shakllangan narxlari quyidagi jadvalda keltirilgan (4-jadval).

4-jadval: "SAG" MCHJ gilamlarining 2021-yilning 1-aprel holatiga bozor narxi

T/r	Kolleksiya nomi	QQS siz	QQS bilan (chakana narx)
1	Isfahan	373300	485300
2	Tumaris	324700	422050
3	Rodin Gray	243300	316250



4	Zilly	132200	158700
5	Emir	133300	160000
6	Ponte	248000	330050
7	Reflex	135600	165600
8	Therapy	243300	316250
9	Avangard	99700	119600
10	Baby	99700	119700

Kompaniyaning narx siyosatini ishlab chiqarishda asosan raqobatchilarning narxlariga e'tibor qaratiladi, boshqa tomonidan korxona respublika va xorijdagi hamkorlar bilan kelishilgan xaolda ish ko'rishi ko'rsatib o'tilgan.

#### D) Tovar tarqatish siyosatining tahlili

"SAG" MCHJ qo'shma korxonasi gilam bozorida barcha jihatlar bo'yicha yetakchilik qilib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib O'zbekiston hududi bo'ylab 500 dan ortiq savdo nuqtalarida ushbu korxonaning gilam mahsulotlari sotilmoqda.

Har bir viloyatda "SAG" qo'shma korxonasi uzinig rasmiy dilleri va do'konlariga ega bo'lib, ularning soni 20 dan ortiq. (...jadval) Dilerlar respublikaning deyarli barcha yiri shaharlarda mavjud: Toshkent, Samarqand, Navoi, Buxoro, Urganch, Nukus, Qarshi, Termiz, Namangan, Andijon, Farg'ona, Qo'qon, Jizzah, Guliston.

#### 5-jadval: "SAG" MCHJning rasmiy diller va do'konlari

Nº	Shahar nomi	Do'kon nomi	Manzili
1	Toshkent	"SAG GILAMLAR DUNYOSI"	Ko'ksaroy ko'chasi, Taxta bozor
2		"SAG GILAMLARI"	TXY, Bek-tupi Savdo kompleksi
3		"SAG"	Ko'shbegi massivi, KXY ko'chasi 14
4		"SAG"	Chinobod, Bardavom ko'chasi 27
5		"IDEA HOME"	TXY ko'chasi, Med gorodok
6		"SAG"	Chilonzor, Bogiston ko'chasi 4A
7	Samarqand	"SAG"	Rudaki ko'chasi 229
8	Navoyi	"SAG"	G'alaba shoh ko'chasi, 197
9	Buxoro	"SAG"	Xujanurobod ko'chasi, 11
10	Urganch	"SAG"	Fidokorlar 1-uy 1
11	Nukus	"SAG"	J. Aymirzayeva, 93
12	Qarshi	"SAG"	O'zbekiston ko'chasi 405
13	Termiz	"SAG"	Tarakkiyot 47A
14	Namangan	"SAG"	Girvonsov, 11
15	Andijon	"SAG" Kashmir do'kon	Mustaqillik 21
16		"SAG"	Kusharik dasaxi ko'chasi 1
17	Farg'ona	"SAG"	Joydam ko'chasi 24
18	Qo'qon	"SAG"	A. Novoi ko'chasi 147A
19	Jizzah	"SAG"	Orom bozor
20	Guliston	"SAG"	Mahalla massivi

#### E) Tovarni bozorda siljitim siyosati

"SAG" MCHJ qo'shma korxonasining reklama va komunikatsiya siyosati iste'molchilarga ko'proq ma'lumot yetkazib berishga qaratilgan. Bunda birinchi o'rinda elektron axborot vositalaidan foydalilanadi, kompaniyaning sayti (<https://www.sag.uz/uz>), telegramm, feybek, instagramm, twitter ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar va kanallarning tashkil etilganligini ta'kidlash lozim. Kompaniya tashqi reklamaga ham katta ahamiyat berib kelmoqda. Gilam mahsulotlarining vazifalari va xususiyatlari \dan kelib chiqqan holda kompaniya ulgurji xaridorlar bilan aloqalarni kengaytirishga katta e'tibor qaratib keladi. Kommunikatsion siyosat korxona marketing bo'limining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. "SAG" MCHJ qo'shma korxonasi xorijda savdo uylarini tashkil qilishga ham harakat qiladi. Masalan, 2020-yil 9-martda Nyu York shahrida "SAG" o'zbek gilamlari va "Gulnor" ipak mahsulotlari savdo uyining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. O'zbekistonning AQSHdag'i elchixonasi xabariga ko'ra,



ushbu savdo uyi AQSHdagi ikkinchi o'zbek milliy yengil sanoat mahsulotlari namoyish maydoni bo'lib, bundan avval 2019-yilda Filadelfiya shahrida ham ana shunday savdo markazi ochilgan edi.

Olib borilgan tahlillarning natijalari shuni ko'rsatdiki "SamAntepGilam" MCHJda marketing boshqaruvini amalga oshirish bo'yicha o'ziga xos yondashuv shakllangan, ya'ni texnologik va texnik jihatdan raqobatchilardan o'zib ketish va mahsulot sifatiga kafolat berishdir. Mazkur yondashuv korxona tashkil qilingan davrda yaxshi samara bergenligini hisobga olgan holda bugungi kunda ham gilam sotish bozorida korxonaning muvaffaqiyatiga salomqli hissa qo'shib kelmoqda.

Ammo bugungi kunda milliy va xorijiy bozor kon'yunkturasida keskin o'zgarishlar bo'lishi va potensial iste'molchilar xulq-atvorini murakkablashishi marketing faoliyatida rivojlanish zarsratini paydo qilmoqda. Bunda xaridor bilan muloqot qilish, sotish va sotishdan keyingi jarayonlariga e'tibor kuchaytirilishi talab qilinadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy marketing faoliyati jahon bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning asosiy quroliga aylangan, shu sababli O'zbekiston korxonalar oldida marketingning eng ilg'or texnologiyalardan foydalanishini ta'minlash zarur bo'lmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston iqtisodiyotining kuchli tarmoqlaridan biri bo'lmissiz to'quvchilik-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda marketing samaradorligni oshirish katta ahamiyatga ega. Ushbu mammoning dolzarbligi muhtaram Prezidentimizning oxirgi yillarda qabul qilgan qator Farmon va Qarorlari bilan tasdiqlanadi. Korxonalarda marketingning samaradorligini oshirish zarurati bizning dissertatsiyamizda olib borilgan izlanishlarimizning maqsadini tashkil qilgan va quyidagi xulosalarga asos bo'lmoqda.

Marketingning zamonaviy konsepsiysi ishlab chiqarish marketing bilan bir qatorda ijtimoiy etik marketing (ijtimoiy maqsadlar, tashkiliy madaniyat, korporativ mas'uliyat), yangi g'oyalalar marketingi (axborot texnologiyalari, iste'molchi, fan-teknika tarqiyoti), xissiy xulq-atvor marketingi (xarid jarayoni, iste'mol jarayoni, xarid motivatsiyasi), marketing-miks ("4R" marketingi, "7R" marketingi, "15R" marketingi), logistik marketing (marketing va logistika integratsiyasi, xaridlarni boshqarish,mijozlarni boshqarish) kabi konsepsiyalarni o'zida mujassamlashtirgan;

Ushbu konsepsiyalarda marketing boshqaruv yoki marketing-mikchs konsepsiysi boshqalarga nisbatan universal bo'lib, ishlab chiqarish korxonalari uchun qulay va samarali hisbolanadi. Mashhur "4R" tamoyili deyarlik barcha sohalarda marketing boshqaruvining timsoli sifatida qabul qilingan. SHu bilan birga oxirgi yillarda marketingning muomala sohasiga kirib borishi qo'shimcha tamoyillarning rivojlanishiga turki bo'lgan, ya'ni "7R" konsepsiyasiga olib kelgan.

O'zbekiston to'qimachilik sohasi mamlakatimiz xalqaro raqobatchiligining drayverlaridan biri hisoblanadi. Oxirgi yillarda paxta xom-ashesining o'zimizda qayta ishlanishi natijasida to'qimachilik-tikuv sanoatida katta o'zgarishlar yuz bergan. Ayniqsa, gilam to'qish korxonalar sonining rivojlanishi gilam mahsulotlari bozorida raqobaitschilikning kuchayishiga olib kelmoqda.

"SAM ANTEP GILAM" qo'shma korxonasida marketing faoliyatini boshqarish yuqorida tamoyillarga asoslangan bo'lib mahsulot sifati va assortimenti, narxi, sotish texnologiyasi va tovarni bozorda siljitim jarayonlarini qamrab olmoqda. SHu bilan birga ishlab chiqarishga e'tiborning qaratilishi bozordagi raqaobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqorida olib borilgan nazariy va amaliy izlanishlar "SAM ANTEP GILAM" qo'shma korxonasi marketing boshqaruvida qo'shimcha tamoyillarga e'tibor qaratishni talab qilmoqda. Bizning fikrimizcha, marketingni boshqarishning bozor siyosati jihatlariga, ya'ni insonlar, soish jarayoni va sotish muhitini rivojlantirish kabi uchta tamoyil korxonaning diqqat markazida bo'lishi lozim. Taklif etilayotgan tamoyillarning joriy qilinishi "SAM ANTEP GILAM" qo'shma korxonasi faoliyatining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi.

### Adabiyotlar:

1. Gary Armstrong. Philip Kotler. Michael Marker. Marketing in introduction. England, 2016, paperback: 720 pages, – Pearson.
2. Philip Kotler. Kavin Lane Ketler. Marketing Management. Pearson Education, Inc. publishing as Prestige Hall, USA, 2012-y.
3. Kotler F., Armstrong G., Vong V., Sonders Dj. Osnovы marketinga, 5-e evropeyskoe izd. Uchebnik. –M.: OOO "I. D. Vilyams, 2013. –752 s.
4. Soliyev A., Vuzrukxonov S., Marketing, bozorshunoslik. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 424 b.
5. Ergashxodjayeva SH. J., Qosimova M. S., YUsupov M. A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.
6. Musayeva Sh. A. Marketing tadqiqotlari. Darslik "STAR-SEL" MChJ nashriyot va ijodiy bo'limi. Samarqand–2023.
7. Musayeva Sh. A. Integrallasshtirilgan marketing kommunikatsiyasiO'quv qo'llanma "Mahorat" nashriyoti, –Samarqand – 2022.
8. Musayeva Sh. A., Usmonova D. I. Innovatsion marketing "TURON EDITION". –2021-yil uchun o'quv qo'llanma.
9. Usmonova D. I Strategik brend boshqaruvi O'quv qo'llanma STAP-SEL MChJ. Nashriyot. –Samarqand 2022-y.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

